


**NAMANGAN VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI
(2021- yil yanvar-noyabr oyi uchun dastlabki ma`lumot)**

Viloyatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2021- yil yanvar-noyabr oyi yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 984,7 mln.AQSh dollarini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 125,2 mln.AQSh dollariga ko'paydi.

**TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI
(yanvar- noyabr, mln.AQSh dollari)**

Ma`lumot uchun: Namangan viloyati tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat Tovar nomenklaturasi (keying o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarini XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

TSA da eksport hajmi 447,4 mln.AQSh dollariga (28,3 % ga ko'paydi) va import hajmi 537,3 mln.AQSh dollariga (22,7 % ga ko'paydi) yetdi. Hisobot davrida – 89,9 mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

**NAMANGAN VILOYAT
BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR
(2021- yil yanvar- noyabr, mln.AQSh dollari, ulushi, % da)**

| Top-10 davlatlar | TSA | Eksport | Import | Ulushi, % da |
|---------------------------|-------|---------|--------|--------------|
| Rossiya Federatsiyasi | 277,6 | 184,1 | 93,6 | 28,2 |
| Xitoy Xalq Respublikasida | 239,3 | 68,9 | 170,4 | 24,3 |
| Qozog'iston | 101,2 | 39,7 | 61,5 | 10,3 |
| Turkiya | 93,0 | 32,9 | 60,1 | 9,4 |
| Qirg'iz Respublikasi | 71,2 | 62,7 | 8,5 | 7,2 |
| Belarus | 17,6 | 2,0 | 15,6 | 1,8 |
| Hindiston | 17,3 | 0,7 | 16,7 | 1,8 |
| Polsha | 15,5 | 6,8 | 8,7 | 1,6 |
| Ukraina | 15,5 | 9,4 | 6,1 | 1,6 |
| Germaniya | 15,4 | 2,8 | 12,7 | 1,6 |

So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishda, eksportni qo'llab-quvvatlash, import o'rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida, eksport tarkibida sezilarli o'zgarishga erishildi.

Namangan viloyati, jahonning 77 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Rossiya Federatsiyasida (28,2 %), Xitoy Xalq Respublikasida (24,3 %), Qozog'istonda (10,3 %), Turkiyada (9,4 %), Qirg'iz Respublikasida (7,2 %), Hindiston (1,8 %) va Belarus (1,8 %) qayd etilgan.

Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

Xususan, qo'shni davlatlar Qozog'iston va Qirg'iz Respublikalari bilan TSA da so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'nggi uch yilda TSA Qirg'iziston va Qozg'iston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda.

Boshqa davlatlar (qo'shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSA da eng yuqori ulush Rossiya, Xitoy, Germaniya, Turkiya va Hindiston davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha 20 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan oltita davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Rossiya Federatsiyasi (277,6 mln.AQSh.dollari), Qirg'iz Respublikasi (71,2 mln.AQSh.dollari) Ukraina (15,5 mln.AQSh.dollari), Tojikiston (5,8 mln.AQSh.dollari), va Portugaliya (4,3 mln.AQSh.dollari), shular jumlasidandir. Qolgan 15 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.

**NAMANGAN VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN
TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (yanvar-noyabr, ming.AQSh.dollari)**

| Davlatlar | 2019- y. | 2020- y. | 2021- y. |
|--------------------------------|-----------------|-----------------|-----------------|
| Rossiya Federatsiyasi | 197867,2 | 202024,7 | 277637,5 |
| Eksport | 123798,2 | 121289,8 | 184063,7 |
| Import | 74069,0 | 80734,9 | 93573,7 |
| Saldo | 49729,3 | 40554,9 | 90490,0 |
| Xitoy Xalq Respublikasi | 264132,4 | 189474,8 | 239276,9 |
| Eksport | 47176,1 | 35769,9 | 68858,8 |
| Import | 216956,3 | 153704,9 | 170418,1 |
| Saldo | -169780,1 | -117935,1 | -101559,3 |



| Davlatlar | 2019- y. | 2020- y. | 2021- y. |
|----------------------------------|-----------------|----------------|-----------------|
| Qozog'iston | 82706,5 | 81856,2 | 101214,6 |
| Ekspart | 39304,4 | 42626,7 | 39736,2 |
| Import | 43402,1 | 39229,5 | 61478,5 |
| Saldo | -4097,7 | 3397,2 | -21742,3 |
| Turkiya | 126961,6 | 51581,5 | 92957,4 |
| Ekspart | 20484,3 | 16250,1 | 32902,3 |
| Import | 106477,3 | 35331,4 | 60055,2 |
| Saldo | -85993,0 | -19081,3 | -27152,9 |
| Qirg'iziston Respublikasi | 88059,2 | 94881,9 | 71206,5 |
| Ekspart | 82395,2 | 87242,9 | 62667,6 |
| Import | 5664,0 | 7639,0 | 8538,9 |
| Saldo | 76731,3 | 79603,9 | 54128,7 |
| Belarus | 4644,5 | 2593,5 | 17550,6 |
| Ekspart | 1992,8 | 1949,0 | 1993,5 |
| Import | 2651,7 | 644,5 | 15557,1 |
| Saldo | -659,0 | 1304,5 | -13563,7 |
| Hindiston | 11855,3 | 12085,5 | 17306,3 |
| Ekspart | 1169,2 | 325,0 | 656,2 |
| Import | 10686,1 | 11760,5 | 16650,1 |
| Saldo | -9517,0 | -11435,4 | -15994,0 |
| Polsha | 9450,3 | 7819,1 | 15467,8 |
| Ekspart | 3503,2 | 6104,0 | 6769,2 |
| Import | 5947,2 | 1715,1 | 8698,6 |
| Saldo | -2444,0 | 4388,9 | -1929,3 |
| Ukraina | 15672,9 | 10316,0 | 15455,5 |
| Ekspart | 8200,4 | 7716,0 | 9390,9 |
| Import | 7472,5 | 2600,1 | 6064,6 |
| Saldo | 728,0 | 5115,9 | 3326,3 |
| | | | |

| Davlatlar | 2019- y. | 2020- y. | 2021- y. |
|--------------------------------|----------------|----------------|----------------|
| Germaniya | 26202,6 | 15677,7 | 15441,0 |
| Ekspart | 5315,2 | 3643,3 | 2764,3 |
| Import | 20887,4 | 12034,4 | 12676,6 |
| Saldo | -15572,2 | -8391,2 | -9912,3 |
| Koreya Respublikasi | 21902,7 | 16039,8 | 11293,1 |
| Ekspart | 329,8 | 278,7 | 340,1 |
| Import | 21573,0 | 15761,1 | 10953,0 |
| Saldo | -21243,2 | -15482,3 | -10612,9 |
| Turkmaniston | 3602,7 | 5247,3 | 9845,1 |
| Ekspart | 1191,8 | 3094,4 | 3493,7 |
| Import | 2410,9 | 2152,9 | 6351,4 |
| Saldo | -1219,1 | 941,5 | -2857,8 |
| Fransiya | 790,4 | 4742,7 | 8396,8 |
| Ekspart | 105,4 | 0 | 0 |
| Import | 685,0 | 4742,7 | 8396,8 |
| Saldo | -579,6 | -4742,7 | -8396,8 |
| Italiya | 7064,9 | 4582,0 | 7637,1 |
| Ekspart | 773,0 | 2061,9 | 1746,9 |
| Import | 6291,9 | 2520,1 | 5890,2 |
| Saldo | -5519,0 | -458,2 | -4143,3 |
| Eron Islom Respublikasi | 5586,6 | 2849,0 | 7474,0 |
| Ekspart | 1585,7 | 650,0 | 1617,3 |
| Import | 4000,9 | 2199,0 | 5856,7 |
| Saldo | -2415,1 | -1549,0 | -4239,4 |
| Tayvan | 1907,4 | 1143,1 | 6230,7 |
| Ekspart | 250,7 | 0 | 42,7 |
| Import | 1656,8 | 1143,1 | 6188,0 |
| Saldo | -1406,1 | -1143,1 | -6145,3 |
| | | | |

| Davlatlar | 2019- y. | 2020- y. | 2021- y. |
|--------------------|---------------|---------------|---------------|
| Malayziya | 8624,3 | 7213,4 | 6208,4 |
| Ekspart | 0 | 0 | 0 |
| Import | 8624,3 | 7213,4 | 6208,4 |
| Saldo | -8624,3 | -7213,4 | -6208,4 |
| Tojikiston | 2722,6 | 5326,5 | 5806,2 |
| Ekspart | 1946,0 | 3830,3 | 4408,8 |
| Import | 776,6 | 1496,1 | 1397,4 |
| Saldo | 1169,4 | 2334,2 | 3011,4 |
| Litva | 9278,0 | 3292,7 | 5191,2 |
| Ekspart | 552,0 | 224,8 | 697,2 |
| Import | 8726,0 | 3067,9 | 4494,1 |
| Saldo | -8174,0 | -2843,1 | -3796,9 |
| Portugaliya | 1869,2 | 1264,7 | 4323,9 |
| Ekspart | 1834,5 | 964,0 | 4107,7 |
| Import | 34,8 | 300,7 | 216,2 |
| Saldo | 1799,7 | 663,3 | 3891,5 |

Viloyatda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2021- yil yanvar-noyabr oyida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 50,9 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi 2020- yilga nisbatan ulushi 24,1 % ga ko'paygan.

**NAMANGAN VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA
MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI
(yanvar-noyabr, % va ulushi)**




Boshqa xorijiy davlatlarning TSA si 2021- yil yanvar-noyabr oyida 2020- yilning shu davriga nisbatan ko'paydi (26,3 % ga) va jami TSA dagi ulushi 49,1 % ni tashkil etdi.

NAMANGAN VILOYATINING EKSPORTI (2021- yil yanvar-noyabr)

Joriy yilning yanvar-noyabr oylarida viloyatning eksportyorlar soni 476 tani tashkil etib, ular tomonidan 447,4 mln.AQSh.dollari (qimmatbaho metallar eksportidan tashqari) qiymatidagi (2020- yilning mos davriga nisbatan 28,3 % ga ko'paydi tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 97,0 % ni tashkil etib, ular Sanoat tovarlari (72,5 %), Oziq-ovqat mahsulotlari (18,5 %) va Mashinalar va transport asbob-uskunalari (2,1 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

EKSPORT TARKIBI
(2021- yil yanvar- noyabr, ulushi, % da)





- Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar
- Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar
- Qora metal
- Mashinalar va transport asbob-uskunalari
- Sanoat mahsulotlari
- Xizmatlar
- Boshqalar

**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA EKSPORT TARKIBI
(2021- yil yanvar- noyabr)**

| XSST tarkibi | Mln.AQSh dollari | | | Umumiy hajmga nisbatan, % da | | |
|--|------------------|----------------|------------------|------------------------------|----------------|------------------|
| | Jami | MDH davlatlari | Boshqa davlatlar | Jami | MDH davlatlari | Boshqa davlatlar |
| Jami eksport | 447,4 | 308,6 | 138,8 | 100,0 | 100,0 | 100,0 |
| shu jumladan: | | | | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 82,7 | 61,7 | 21,0 | 18,5 | 20,0 | 15,1 |
| Qora metallar | 3,8 | 3,4 | 0,4 | 0,8 | 1,1 | 0,3 |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar | 5,7 | 5,2 | 0,5 | 1,3 | 1,7 | 0,3 |
| Sanoat tovarlari | 324,3 | 218,6 | 105,7 | 72,5 | 70,9 | 76,3 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunolari | 9,4 | 8,1 | 1,3 | 2,1 | 2,6 | 0,9 |
| Xizmatlar | 13,4 | 10,0 | 3,4 | 3,0 | 3,2 | 2,4 |
| Boshqalar | 8,1 | 1,6 | 6,5 | 1,8 | 0,5 | 4,7 |

MDH mamlakatlari va boshqa mamlakatlarga eksportning yo'nalishi bo'yicha farqlanishlar mavjudligi kuzatilmoqda. Xususan, MDH mamlakatlariga eksportning asosiy qismi oziq-ovqat mahsulotlariga to'g'ri kelmoqda, keyingi o'rinlarda eksport hajmi bo'yicha asosan yengil sanoat tovarlari, qora va rangli metallar, mashina va asbob-uskunalar va kimyo mahsulotlariga to'g'ri kelmoqda.

**MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR
VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI**
(yanvar-noyabr, % va ulushi,)




2021- yilning yanvar-noyabr oyi yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Rossiya Federatsiyasi (eksport umumiy hajmining 41,1 %), Xitoy Xalq Respublikasi (15,4 %), Qirg'iz Respublikasi (14,0 %), Qozog'iston (8,9 %), Turkiya (7,4 %), Ukraina (2,1 %) va Polsha (1,5 %) davlatlari saqlanib qolmoqda, hamda ularning jami eksportdagi ulushi 90,4 foizni tashkil etmoqda.

Tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha yettita asosiy hamkor davlatlardan Rossiya Federatsiyasi eksportdagi ulushi bo'yicha peshqadamlikni saqlab qolmoqda.

Hamkor mamlakatlarning tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha geografiyasi 2020- yining mos davriga nisbatan 47 davlatdan 54 davlatga ko'paydi.

NAMANGAN VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2021- yil yanvar-noyabr, % da)



- Rossiya Federatsiyasi
- Xitoy Xalq Respublikasi
- Qirg'iz Respublikasi
- Qozog'iston
- Turkiya
- Ukraina

**TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTIDAGI YIGIRMATA
YIRIK HAMKOR DAVLATLAR
(yanvar-noyabr)**

| Davlatlar | Ming.AQSH dollari | | O'sish sur'ati, % da | | O'rni | |
|-------------------------|-------------------|----------|-------------------------|----------|----------|----------|
| | 2020- y. | 2021- y. | 2020- y. | 2021- y. | 2020- y. | 2021- y. |
| Rossiya Federatsiyasi | 121289,8 | 184063,7 | 98,0 | 151,8 | 1 | 1 |
| Xitoy Xalq Respublikasi | 35769,9 | 68858,8 | 75,8 | 192,5 | 4 | 2 |
| Qirg'iz Respublikasi | 87242,9 | 62667,6 | 105,9 | 71,8 | 2 | 3 |
| Qozog'iston | 42626,7 | 39736,2 | 108,5 | 93,2 | 3 | 4 |
| Turkiya | 16250,1 | 32902,3 | 79,3 | 202,5 | 5 | 5 |
| Ukraina | 7716,0 | 9390,9 | 94,1 | 121,7 | 6 | 6 |
| Polsha | 6104,0 | 6769,2 | 174,2 | 110,9 | 7 | 7 |
| Tojikiston | 3830,3 | 4408,8 | 196,8 | 115,1 | 8 | 8 |
| Afg'oniston | 2428,3 | 4268,7 | 502,8 | 175,8 | 12 | 9 |
| Portugaliya | 964,0 | 4107,7 | 52,5 | 426,1 | 19 | 10 |
| Turkmaniston | 3094,4 | 3493,7 | 259,6 | 112,9 | 11 | 11 |
| Germaniya | 3643,3 | 2764,3 | 68,5 | 75,9 | 9 | 12 |
| Misr | 137,4 | 2098,5 | 100,0 | 1527,3 | 30 | 13 |
| Belarus | 1949,0 | 1993,5 | 97,8 | 102,3 | 15 | 14 |
| Moldovo Respublikasi | 996,7 | 1950,4 | 65,4 | 195,7 | 17 | 15 |
| Italiya | 2061,9 | 1746,9 | 266,7 | 84,7 | 13 | 16 |
| Eron | 650,0 | 1617,3 | 41,0 | 248,8 | 22 | 17 |
| Guruziya | 624,5 | 1314,6 | 129,1 | 210,5 | 23 | 18 |
| Belgiya | 23,2 | 1266,2 | 79,5 | 54,7 m | 38 | 19 |
| Pokiston | 3144,4 | 1123,3 | 12,7 m | 35,7 | 10 | 20 |

Ushbu mamlakatlarga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga asosan oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar, sanoat tovarlari va turli xil tayyor buyumlar kiradi.

Xizmatlar eksporti hajmi 13387,9 ming.AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 3,0 % ini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 2,6 martaga ko'payganligi kuzatildi.

TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI

To'qimachilik mahsulotlari eksporti hajmining oshishi bevosita paxta xomashyosi o'rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo'shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlarning natijasi ekanini ko'rish mumkin. Jumladan, joriy yilda 324,5 mln.AQSh dollarlik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 72,5 % ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 155,7 % ga o'sdi.


Viloyatning to'qimachilik sanoatini diversifikatsiya qilish va tayyor mahsulotlar eksportini rag'batlantirish borasidagi amaliy ishlari natijasida, viloyatimizning ushbu sohadagi salohiyati oshib bormoqda.

NAMANGAN VILOYATINING IMPORTI (2021- yil yanvar-noyabr)

2021- yil yanvar-noyabr oyida import hajmi 537,3 mln.AQSh dollarini va 2020- yilning mos davriga nisbatan 122,7 % ni tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulushi, mashinalar va transport asbob-uskunalari (34,7 %), boshqalar (19,8 %) hamda Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (17,7 %) hisobiga to'g'ri keldi.

IMPORT TARKIBI
(2021- yil yanvar-noyabr, ulushi, % da)



- Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar
- Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar
- Qora metal
- Mashinalar va transport asbob-uskunalari
- Boshqalar

Tovar va xizmatlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2021- yilning yanvar-noyabr oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 99,4 mln.AQSh dollariga ko'paydi va 537,3 mln.AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 1,1 mln.AQSh dollariga yetdi.

**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN IMPORT TARKIBI
(2021- yil yanvar-noyabr)**

| XSST tarkibi | Mln.AQSh dollari | | | Umumiy hajmga nisbatan, % da | | |
|--|------------------|----------------|------------------|------------------------------|----------------|------------------|
| | Jami | MDH davlatlari | Boshqa davlatlar | Jami | MDH davlatlari | Boshqa davlatlar |
| Jami import | 537,3 | 193,0 | 344,3 | 100,0 | 100,0 | 100,0 |
| shu jumladan: | | | | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 95,1 | 61,8 | 33,3 | 17,7 | 32,0 | 9,7 |
| Qora metallar | 53,1 | 34,6 | 18,5 | 9,9 | 17,9 | 5,4 |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar | 96,0 | 14,3 | 81,7 | 17,9 | 7,4 | 23,7 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 186,5 | 19,3 | 167,2 | 34,7 | 10,0 | 48,5 |
| Boshqalar | 106,6 | 63,0 | 43,6 | 19,8 | 32,7 | 12,7 |


Importning eng katta ulushi, jumladan, Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar mahsulotlar (32,0 %) Qora metallar (17,9 %), hamda MDH mamlakatlariga to'g'ri keladi, boshqa xorijiy mamlakatlarga esa eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalari (48,5 %), Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (23,7 %) va hissasiga to'g'ri keladi.


Joriy davrda import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko'rsatdiki,

2020- yilning mos davriga nisbatan Mashina va asbob-uskunalar 34,7 % Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar importining ulushi 17,7 % ga oshdi, kimyo mahsulotlari va buyimlari importining ulushi 17,9 % ga oshdi, ga oshdi.

**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN TOVAR
VA XIZMATLAR IMPORTI**

(yanvar-noyabr, % va ulushi)





Hisobot davri yakunlariga ko'ra, import bo'yicha hamkor davlatlar orasida Xitoy Xalq Respublikasi umumiy import hajmida 31,7 % ulushi bilan Rossiya Federatsiyasini 17,4 % ortda qoldirgan holda, birinchi o'rinni egalladi.


**TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTIDAGI YIGIRMATA YIRIK HAMKOR DAVLATLAR
(yanvar-noyabr)**

| Davlatlar | Ming. AQSH dollari | | O'sish sur'ati, % da | | O'ri | |
|-------------------------|--------------------|----------|-------------------------|---------|----------|---------|
| | 2020- y. | 2021-y. | 2020- y. | 2021-y. | 2020- y. | 2021-y. |
| Xitoy Xalq Respublikasi | 153704,9 | 170418,1 | 70,8 | 110,9 | 1 | 1 |
| Rossiya Federatsiyasi | 80734,9 | 93573,7 | 109,0 | 115,9 | 2 | 2 |
| Qozog'iston | 39229,5 | 61478,5 | 90,4 | 156,7 | 3 | 3 |
| Turkiya | 35331,4 | 60055,2 | 33,2 | 170,0 | 4 | 4 |
| Hindiston | 11760,5 | 16650,1 | 110,1 | 141,6 | 8 | 5 |
| Belarus Respublikasi | 644,5 | 15557,1 | 24,3 | 2414,0 | 32 | 6 |
| Germaniya | 12034,4 | 12676,6 | 57,6 | 105,3 | 7 | 7 |
| Koreya Respublikasi | 15761,1 | 10953,0 | 73,1 | 69,5 | 5 | 8 |
| Polsha | 1715,1 | 8698,6 | 28,8 | 507,2 | 23 | 9 |
| Qirg'iz Respublikasi | 7639,0 | 8538,9 | 134,9 | 111,8 | 10 | 10 |
| Fransiya | 4742,7 | 8396,8 | 692,4 | 177,0 | 13 | 11 |
| Turkmaniston | 2152,9 | 6351,4 | 89,3 | 295,0 | 20 | 12 |
| Malayziya | 7213,4 | 6208,4 | 83,6 | 86,1 | 12 | 13 |
| Tayvan | 1143,1 | 6188,0 | 69,0 | 541,3 | 29 | 14 |

| Davlatlar | Ming. AQSH dollari | | O'sish sur'ati, % da | | O'ri | |
|-----------|--------------------|---------|-------------------------|---------|----------|---------|
| | 2020- y. | 2021-y. | 2020- y. | 2021-y. | 2020- y. | 2021-y. |
| Ukraina | 2600,1 | 6064,6 | 34,8 | 233,2 | 17 | 15 |
| Italiya | 2520,1 | 5890,2 | 40,1 | 233,7 | 18 | 16 |
| Eron | 2199,0 | 5856,7 | 55,0 | 266,3 | 19 | 17 |
| Litva | 3067,9 | 4494,1 | 35,2 | 146,5 | 15 | 18 |
| Latviya | 1548,2 | 3807,4 | 13,8 | 245,9 | 24 | 19 |
| Argentina | 1020,1 | 3089,0 | 31,0 | 302,8 | 30 | 20 |

2021- yil yanvar-noyabr oyi yakuni bo'yicha Namangan viloyati tomonidan 66 davlat bilan tovarlar va xizmatlar importi amalga oshirildi.

**NAMANGAN VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR-NING ULUSHI
(2021 - yil yanvar-noyabr % da)**





Olti yirik hamkor davlatlar (Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Turkiya, Hindiston va Germaniya) jami importning 77,2 % ini tashkil qiladi, bu 414852,3 ming.AQSh dollarini tashkil etadi.

Mamlakatdagi sarmoyaviy muhit yaxshilangani sari va ushbu sohada amalga oshirilgan islohotlar natijasida mashina va uskunalar, shuningdek, ularning qismlari importining o'sishi tabiiydir. Shunday qilib, Xitoy, Rossiya, Qozog'iston, Turkiya va Hindiston tomonidan kiritilgan katta hajmdagi investitsiyalar natijasida, mahsulotlar importi hajmida ushbu mamlakatlarning yuqori ulushi saqlanib qolmoqda.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat
va savdo statistikasi bo'limi
Tel.:(69)-211-72-00**